

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'l

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdorovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimunya Odimegwa

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 16 December 2025**Accepted:** 1 January 2026**Published:** 15 January 2026*Article / Original Paper***THE PROCESS OF REFORMING SELF-GOVERNMENT BODIES IN UZBEKISTAN AS AN IMPORTANT INSTITUTION OF CIVIL SOCIETY****Yunusova Manzurakhon Pazliddinovna**Head of the Department of Social Sciences,
Andijan State University,
Doctor of Philosophy, Professor

Abstract. This article analyzes the process of reforming citizens' self-government bodies in Uzbekistan as an important institution of civil society based on a systematic and comprehensive approach. The study examines the historical formation of the mahalla institution, its legal and regulatory framework, its role in the decentralization of public administration, as well as its functional capacities in ensuring public participation. In addition, the content and essence of reforms aimed at improving the mahalla institution during the years of independence—particularly within the framework of strategic documents adopted in 2017–2023—are revealed. The research also analyzes the role of self-government bodies in the fields of social protection, public oversight, crime prevention, and work with families and women, and scientifically substantiates their significance for the sustainable development of civil society.

Keywords: civil society, self-government bodies, mahalla institution, decentralization, public oversight, democratic reforms, social partnership, rule of law, “Prosperous and Safe Mahalla”.

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI**Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna**AnDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri,
Falsafa fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida isloh etish jarayoni tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahalla institutining tarixiy shakllanishi, huquqiy-me'yoriy asoslari, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish jarayonidagi o'rni hamda jamoatchilik ishtirokini ta'minlashdagi funksional imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017-2023-yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar doirasida mahalla institutini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyati ochib beriladi. Tadqiqotda o'zini o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy himoya, jamoatchilik nazorati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, oilalar va xotin-qizlar bilan ishlash tizimidagi roli tahlil qilinib, ularning fuqarolik jamiyati barqaror rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy asosda xulosalanadi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla instituti, nomarkazlashtirish, jamoatchilik nazorati, demokratik islohotlar, ijtimoiy hamkorlik, huquqiy davlat, “Obod va xavfsiz mahalla”.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N06>

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy darajadagi boshqaruv

institutlari aholi manfaatlarini bevosita ifodalash, jamoatchilik faolligini oshirish va davlat hokimiyati faoliyatining ochiqqligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda mahalla instituti tarixan shakllangan o'ziga xos ijtimoiy boshqaruv shakli sifatida fuqarolik jamiyatining tayanch bo'g'inlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Mustaqillikdan so'ng mamlakatda amalga oshirilgan siyosiy-huquqiy islohotlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini demokratik institut sifatida mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, davlat boshqaruvini markazsizlashtirish, quyi bo'g'inlar vakolatlarini kengaytirish, aholini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylandi. Natijada mahalla institutining jamiyatdagi roli nafaqat ijtimoiy-ma'naviy, balki siyosiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan ham sezilarli darajada oshdi.

Bu borada 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida mahalla institutiga alohida strategik e'tibor qaratilgani diqqatga sazovordir. Murojaatnomada mahallaning jamiyatdagi o'rni "jamiyatning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi" sifatida ta'riflanib, uni davlat va jamiyat boshqaruvi o'rtasidagi eng muhim bog'lovchi bo'g'in sifatida rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, mahalla institutining vakolat va resurslarini kengaytirish, uning aholi muammolarini hal etishdagi mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish orqali fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Bu esa mahallaning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi ahamiyatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan konseptual yondashuv ekanini ko'rsatadi[1].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida isloh etish jarayoni zamonaviy islohotlar kontekstida ilmiy tahlil qilinadi hamda mazkur jarayonning ijtimoiy barqarorlik va demokratik taraqqiyotga ta'siri asoslab beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan keng foydalanildi. Jumladan, tarixiylik va mantiqiylik metodlari orqali mahalla institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari izchil tahlil qilindi. Tizimli yondashuv metodi asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik nazorati tizimi bilan uzviy bog'liqlikda o'rganildi.

Shuningdek, qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali milliy tajriba rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyoti bilan solishtirildi, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili yordamida mahalla institutini tartibga soluvchi qonun va farmonlarning mazmun-mohiyati ochib berildi. Statistik va empirik ma'lumotlarni tahlil qilish usullari orqali fuqarolar yig'inlari faoliyatining amaliy samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va xulosalash metodlari asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari. Respublikada o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari mustaqillikka erishilgandan keyin fuqarolik jamiyatining institutlari sifatida taraqqiy eta boshladi. Davlatning bosh islohotchilik siyosatida o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarini demokratik tamoyillarni asos qilib oldi, taraqqiy etishini ta'minlaydigan qonuniy asoslari vujudga keldi. Davlatda fuqarolarni o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilotlarining tamoyillari, mamlakatning qomusi va huquqiy me'yoriy hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarning xarakteriga oid mahalliy ahamiyat kasb etuvchi funksiyalarni amalga oshirilishini tashkillashtiruvchi muhim qoidalar jamlanmasi asosidir. Fuqarolarni o'zini o'zi boshqaruv tamoyillariga mos bo'lgan obyektiv nazariya va qarashlarda o'z ifodasini topdi:

2013-yil 22-aprelda qabul qilingan “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida”gi qonunning 3-moddasida quyidagidek ifoda etiladi: “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni oʻz manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va maʼnaviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va anʼanalardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir” deb qoʻyilgan. Qonunning 1-moddasining maqsadi fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat[3].

Uning tashkilotlari faoliyatlarini tashkillashtirilishida hamda rivojlantirilishida aholining bilvosita qatnashishi taʼminlanadi. Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish tashkilotlari faoliyatida xalq hokimiyatchilik tizimi tamoyillarini davlatimizda erkinlashtirish faoliyatini tez suratlarda amalga oshiradi, milliy va umum bashariy anʼanalarni yuksaklikka koʻtarish, mustaqil fuqarolik jamiyatini shakllantirib borish, bu sohada fuqarolarning qatnashishlarini amalga oshirish vazifalarini bajaradi.

Fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish tashkilotlari Respublika “Mahalla” xayriya jamgʻarmasining hududlardagi boʻlimlarida azaldan shakllanib kelgan milliy va maʼnaviy anʼanalarni kengroq tashviq etish, eng sara milliy qadriyatlar va urf odatlarni yanada kengroq tarqatish, mamlakat xaqli orasida, madaniyat, maʼrifatga oid ishlarni kengroq yoʻnaltirish, xayr-saxovat hamda odamiylik, insonlarning oʻrtasida bir-birlarini oʻzaro anglashi, ahil qoʻshnichilik gʻoyasini tushuntirib borishda faol tashviqot va targʻibot ishlarini yuritish, aniq hududlarda istiqomat qilayotgan ijtimoiy muhtoj oilalarni, nogironligi boʻlgan shaxslarni, nuroniylarni hamda bola huquqini keng koʻlamda ijtimoiy himoya qilish, xar xil anʼanaga oid boʻlgan marosimlarni tashkil qilish, mahalla hududini obod qilish; mamlakatda mahallar fuqarolari yigʻinlarini faoliyat olib borishini yaxshilashga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish.[3; B.87-89.]

Oʻzini oʻzi boshqarish tashkilotlari davlat va jamiyat funksiyalarini boshqarib borishda aholini jalb etib borishga yordamlashadi, mamlakat apparati tashkilotlariga, yuqorida turuvchi davlat tashkilotlarining aktlarini mahalliy kengash deputatlari, hamda hokimlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni bajarilishida koʻmaklashish maqsadida aholini oʻzaro jipslashtiradi. Bugungi kunda davlatimizda 9794 ta fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish tashkilotlari oʻzlarining faoliyatlarni olib bormoqda. Toshkentda 1165 tasi, Jizzaxda 305 tasi, Qoraqalpogʻiston Respublikasida 401 tasi joylashtirilgan[4].

Ushbu tashkilotlarning faoliyati quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

- yosh oilalarga ijtimoiy yordam koʻrsatish orqali ularni qoʻllab-quvvatlash;
 - ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga toʻy va boshqa marosimlarni oʻtkazishda moliyaviy yordam berish;
 - xususiy biznesni rivojlantirish, shuningdek yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yoʻlga qoʻyish;
 - hunarmandchilik bilan shugʻullanuvchi fuqarolarni rivojlantirishga koʻmaklashish.
- Asosan ularning faoliyatida jamoatchilik nazoratiga doir boʻlgan funksiyalarni faollik bilan amalga oshirilib kelinmoqda.

Muhokama. Bugungi kunda, yurtimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish sohasida bir talay islohotlarni amalga oshirilib kelinmoqda. Buning natijasida, olib borilayotgan islohotlarning asosiga eʼtiborni qaratsak, boshqaruv tizimining markazlashtirish

orqali boshqarishdan, nomarkazlashtirish tizimiga o'tib borayotganligi namoyon bo'ladi, nomarkazlashtirish tizimida esa, boshqarishning quyi bosqichi bo'lgan, o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari funksiyalarini takomillashtirib borish, asosiy ahamiyatni ifoda etadi.

2017-2021-yillarni o'z ichiga olgan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi faoliyatini "2018-2021-yillarda amalga oshirish nazarda tutilgan davlat dasturi loyihasini ishlab chiqishga doir vazifa qo'yilgan.

Ushbu dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirib borish ko'zda tutilgan:

- «Mahalla» jamg'armasi tizimi va funksiyalarini takomillashtirib borish;
- o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarga berilgan vakolatlarni amalga oshirishda konstruktiv uslublarni bir tizimga tushirish;
- o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarining umumilmiy faoliyatlarni amalga oshirishlari uchun moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

2017-yil 3-fevralda qabul qilingan "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4944-sonli farmoni O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari faoliyatida muhim bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarini taraqqiy etishini ta'minlashda, uning huquqiy asosini zamini yaratildi. Ushbu farmonning mazmun-mohiyatiga nazar solsak, yurtimizda o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarni fuqarolik jamiyati institutlari darajalariga ko'tarib chiqilishiga oid islohotlarida tub burilish davrini vujudga keltirdi.

Unda, o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari faoliyatlari samarasini oshirib borish, bunda mahalla institutini halqa eng yaqin bo'lgan xalqchil strukturaga aylantirib borish, fuqarolar yig'inlarining chambarchas ehtiyojlarini ifodalovchi uyushmalarga birlashtirish huquqini kamol toptirishda ularning moliyaviy sharoitlarini mustahkamlab qo'yish va davlat tashkilotlarining fuqarolik jamiyatining bir biri bilan hamjihatligini yana ham taraqqiy ettirish maqsadi strategiyasi va nazariyalari amalga oshirildi. Ushbu, farmonda mahalla institutlarining takomillashtirib borishning muhim yo'nalishini amalga oshirishni quyidagicha belgilandi:

- o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarning jamiyat siyosiy hayotidagi, roli va o'rnini kuchaytirib borish, ularni joylardagi aholining samimiy ko'makdoshi va maslakdoshiga aylantirib borish;

jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlab olishda, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, mahalla a'zolarida qonunga bo'lgan hurmatni shakllantirishni kuchaytirib borish, ularning bilvosita qatnashishini kengaytirib borish;

o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari, qonuniy va huquqiy ehtiyojlarini himoyalashning faoliyatlarini mujassamlashtirishning samaradorligini oshirishdagi uslublarini joriy etib borishda mahalla doirasida yagona huquqiy tartibotni qo'llab borish tajribasini ta'minlash[5].

Ushbu farmonning ijro etilishining ta'minlash maqsadlarida hukumatning 2017-yil 23-noyabrda 940-sonli "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra respublikaning hududlar kesimida belgilanganidek, shahar va tuman hokimliklarining o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari hamkorligida doimiy funksiyalarini olib borishi belgilab berildi:

- hududlarda iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiy ettirish dasturlarini hamda huquqiy me'yoriy aktlar loyihalarini tayyorlash va ularni ekspertiza qilish va amaliyotga tatbiq etish;

- hududlarda, ularni obod qilish ishlarini amalga oshirishni hamda ko'kalamzorlashtirishni ta'minlashga, mahalladagi uy-joylar shirkatlarning faoliyatida yuzaga kelgan muammolarni aniqlab olish va ularning yechimlarini yechishga qaratilgan aniq maqsadlarni ochib beradigan tadbirlarni muntazam tashkil etib borish;

- oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy sharoitni o'rganib borish orqali vujudga kelgan muammolarni yechimlarini topib va ularni bartaraf qilish bo'yicha ta'sirli bo'lgan jamoat nazoratini tashkillashtirish va amalga oshirib borish;

- ijtimoiy sohaga tegishli bo'lgan obyektlar, dast avval, tibbiyot, maorif hamda boshqa turdagi muassasalarni unumli faoliyatlarini olib borishlarini ta'sirli tarzda chora-tadbirlarini amalga oshirib borish va ularning ijrosini ta'minlashda jamoat nazoratini bir tizimda olib borishga yo'naltirish;

- tadbirkorlarga amaliy ko'maklashish va yangidan ish o'rinlarini tashkil etish, aholini doimiy ish bilan ta'minlab borish yuzasidan barcha sohalarni qamrab olgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borish;

- dehqon fermer xo'jaliklari, aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida ularga ajratilgan tomorqa uchun yerlardan aniq maqsad asosida foydalanib borish, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda fermer xo'jaliklariga yordamlashish tadbirini ko'rish;

- mahallarda huquqbuzarliklarni oldini olish, voyaga yetmagan hamda uyushmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarga qarshi profilaktika ishlarini olib borish[6].

Hozirgi davrga kelib, davlat boshqaruvida demokratik islohotlarni amalga oshirish vazifasini nazarda tutgan holda davlat hokimiyatining ba'zi bir vakolatini hududiy boshqaruv tashkilotlariga o'tkazishga oid islohotlarni amalga oshirish. Boshqacha qilib aytilganda, hududiy hokimiyat tashkilotlari davlatning ijtimoiy, moliyaviy hamda siyosiy sohasini boshqarishda erkin va tashabbuskor subyektlarga aylanishiga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Shu bilan birgalikda, mahalliy boshqaruv bo'g'inida aholining o'zini o'zi boshqarish tashkilotiga (shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari) ga ham nomarkazlashtirish tamoyili asnosida hokimliklarning ba'zi bir vakolatlarini bosqichma bosqich o'tkazib borishga oid huquqiy asosni shakllantirish ko'zda tutilmoqda. Tarixan mahalliy o'zini o'zi boshqarish shakli ko'rinishida shakllanib kelgan mahalla fuqarolar yig'inlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi taraqqiyoti uchun huquqiy va ijtimoiy imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.02.2018-yilda qabul qilingan 117-sonli "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga uslubiy-amaliy ko'maklashish, o'zaro bog'liq bo'lgan vazifalar ijrosini to'laqonli ta'minlash tizimini shakllantirish hamda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari faoliyat ko'rsatishini umumlashtirish borasida respublika kengashi, shuningdek manfaatdor bo'lgan vazirlik va idoralar hamda NNTlarning davlat organlari bilan birgalikdagi vazifasi hamda funksiyasini nazarda tutgan holda, fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik strukturasiga biriktirish.

Jamoatchilik tuzilmalarining muhim vazifasi etib quyidagilar belgilab olindi:

- mahallalarda mamlakat hamda NNT vazifalarining ijrosini ta'minlash, ular tomonidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflarni bevosita joylardagi fuqarolardan olishda jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini kengaytirish;

- davlat va NNTlar faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda jamoatchilik tuzilmalari rolini oshirish;

- mahallalarda yuzaga kelayotgan turli muammolarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish va bartaraf etishda jamoatchilik tuzilmalari imkoniyatlarini samarali ro'yobga chiqarish[7].

2018-yil 27-iyunda imzolangan PF-5467-sonli «Obod mahalla» dasturi to'g'risida"gi Farmoni mahalla institutini nafaqat ijtimoiy jihatdan rivojlantirish, balqi uning iqtisodiy va moliyaviy asoslarini ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur farmonda mamlakatdagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi ochib berildi:

- barcha darajadagi mahalliy hokimliklar va kommunal tarmoq korxonalari tomonidan bevosita zimmasidagi muvofiqlashtirish vazifasining to'liq bajarilmasligi oqibatida mahalladagi ijtimoiy va muhandislik infratuzilmalari nochor ahvolga tushib qolgan;

- mahallalar hududlarida aholiga xizmat ko'rsatadigan tuzilmalarning faoliyati doimiy ravishda yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida aholi kundalik ijtimoiy-maishiy masalalar bilan ham mahalliy hokimlik va davlat organlariga murojaat qilishga majbur bo'lmoqda;

Shu bilan birga, Farmonda "Obod mahallar" dasturining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- har bir mahallada o'z ichiga mahalla guzarini, tibbiyot maskanlari negizida qulay va arzon dorixonalarni, zarur maishiy xizmat va servis shoxobchalarini, bolalar maydonchasi hamda kichik istirohat bog'ini qamrab oladigan "mahalla markazi"ni barpo etish;

- har bir mahallaning tarixan shakllangan tadbirkorlik va hunarmandchilik salohiyatini hamda ma'naviy-madaniy an'alarini qayta tiklash va rivojlantirish;

- mahalla ahlini elektr energiyasi, ichimlik suvi, ko'mir va tabiiy gaz bilan ishonchli ta'minlash, maishiy chiqindilarni to'plash va chiqarishning zarur infratuzilmasini yaratish va har bir oila energiya va kommunal xizmatlarga to'lovni to'liq xolda hamda o'zining vaqt-soatida amalga oshirishi va xonadonlardagi o'lchov-hisoblash uskunalarining bir maromda ishlashi uchun mahallaning mas'uliyatini keskin oshirish;

- mahalla hududidagi maktabgacha ta'lim muassasalarini, umumta'lim maktablarini, tibbiyot, madaniyat va jismoniy tarbiya xamda sport tashkilotlari bino va inshootlarini ustuvor ravishda rekonstruksiya qilish va ta'mirlash;

- ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalarga ularning uy-joylarini ta'mirlashda moddiy va moliyaviy yordam ko'rsatish hamda aholini qurilish materiallari bilan imtiyozli tarzda ta'minlash[8].

Hozirgi davrda davlatda o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarini fuqarolik jamiyatining institutlari funksiyalarini rivojlantirishning bosqichi 18 fevral 2020 yilda imzolangan PF-5938-sonli "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"[9] gi farmonining qabul qilinishi bilan boshlandi. Farmonga asosan har bir mahallada "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan oltita muhim yo'nalishni ko'zda tutuvchi boshqaruvning yangicha shakli joriy qilindi:

- jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko'mak doshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish;

- xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

- jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish;

- mahalla institutining ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo'lga qo'yish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari va ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlarining roli va mavqeyini yanada oshirish, mustaqilligi hamda vakolatlarining amaliy samaradorligini ta'minlash;

- sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda xodimlarning mehnatini munosib rag'batlantirish fuqarolar yig'inlariga xos bo'lmagan funksiyalar yuklatilayotganligi, ularning boshqa quyi idoralar bilan hamkorligi tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, oila, xotin-qizlar va keksalarga yordam ko'rsatishning yaxlit tizimi mavjud emasligi, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo'yicha ko'rilyotgan choralar samarali natija bermayotganligi jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi ko'rsatib o'tildi[10; B.3].

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi shuningdek ushbu vazirlikning hududiy kesimlari bo'limlaridagi muhim vazifa "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'liq hamda sifatli amalga oshirilishida har tomondan ko'mak berish, oila va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari birkalikda yaqindan aloqalar belgilanib, ushbu aloqalarni amalga oshirishni har tomonlama qo'llash hisoblanadi.

Binobarin, mamlakatimizda tinch totuv hayotni ta'minlashda, xalqimizni fidokorona mehnatni amalga oshirishlarida, mahalla fuqarolar yig'inlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi[10; B.4.].

O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi quyidagi vazifa faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi:

Mahallalarda istiqomat qiluvchi oilalarda ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlarini sog'lomlashtirish uchun fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari hamjihatligini ta'minlash;

- Xotin-qizlarni qo'llab borishga oid davlat siyosatini unumli amalga oshirib borilishini ta'minlab borish, ularni qonuniy va huquqiy ehtiyojlarini davlatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi o'rni va faol bo'lishlarini ta'minlash;

- Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlab borish, mehnat qilish muhitini yaxshilab borish, qishloq joylarda yashaydigan xotin-qizlarni, ayniqsa, yosh qizlarni xususiy tadbirkorlikka va oilaviy korxonalarni tashkil etishga ko'maklashish, turli xil hunarlari o'rgatishda keng ko'lamda qo'llab quvvatlash;

- fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari faoliyatlarini qo'llab borish, ularni qonuniy va huquqiy ehtiyojlarini himoyalash, mahalla tizimlarini taraqqiy ettirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarini jamiyat siyosiy hayotidagi roli va o'rnini kuchaytirish, aholining kundalik muammolarini hal etish va ta'sirli tarzda jamoatchilik nazoratini rivojlantirib borish;

- mahallada qonun ustuvor ekanligini ta'minlab borish va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida profilaktika ishlari olib borish, davlat tashkilotlari va jamoat organlarining o'zaro hamjihatligini mustahkamlab borish;

- fuqarolarning yig'inlarini moddiy-texnikaviy ta'minotlarini yaxshilab borish va zamonaviy ommaviy axborot ishlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.-oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o'rnatish;

- xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash;

- xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Fuqarolar yig'ini raisiga o'ziga tegishli bo'lgan hududda profilaktika inspektorini xizmat vazifasini bajarishini baholab borishi, hamda uni faoliyatiga qarab rag'batlantirishi yoki inspektorni ishdan bo'shatishgacha bo'lgan choralarni amalga oshirish uchun Ichki ishlar vazirligi hamda unga qarashli bo'lgan hududiy bo'linmalarida ko'rib chiqish uchun majburiy taqdimnomalar kiritish huquqi berildi[10; B.4.].

2020-yil 12-fevralda Prezident Sh.M. Mirziyoyev raisligida mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazilib, unda mahalla tizimi jamiyatimizning eng muhim va tayanch bo'g'ini hisoblanishi, oxirgi uch yilda uni rivojlantirish borasida qator amaliy ishlar amalga oshirilganligi ta'kidlab o'tildi.

2017-2023-yillarda mahalla institutiga oid 90 ta qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, ulardan 50 dan ortig'i takomillashtirildi. So'nggi besh yilda yilda 624 ta mahalla idorasi yangidan qurildi, 2 ming 265 tasi rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi, 102 ta tuman va shahar markazida "Mahalla markazi" majmualari barpo etildi, har bir fuqarolar yig'inida "Keksalar maslahati" guruhlari, 4 mingdan ziyod mahalla binolarida kutubxonalar tashkil qilindi.

Mahalla faollarining mas'ul tashkilotlar va profilaktika inspektorlari bilan hamkorligida oxirgi besh yilda 87 mingga yaqin kam ta'minlangan oila ehtiyojmandlik darajasidan chiqarildi. Mahallalarda 18 mingdan ortiq xodim faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lsa-da, ularning ishi samarali tashkil etilmaganligi, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlarga yomon ta'sir etuvchi holatlarning oldini olish bo'yicha tizim yo'lga qo'yilmaganligi o'zining salbiy oqibatlarini namoyon qila boshlagan edi.

2020-yilning boshlarida 1 ming 234 ta fuqarolar yig'ini turli tashkilotlar yoki tadbirkorlarga tegishli binolarda joylashganligi, ularning mingdan ziyodi ijtimoiy muassasalarda, 78 tasi qo'shni mahalla yig'inlari binolarida faoliyat ko'rsatishi, 48 ta mahalla binosi avariya holatida ekanligi aniqlandi. Shuningdek, mahalla tizimida kadrlar qo'nimsizligi odatiy holga aylanganligi, mahalla xodimlarini ularga bog'liq bo'lmagan ishlar, majlis va turli tadbirbozliklarga jalb etish kuchaygan edi. Shuningdek, bu davrga kelib mahalla fuqarolar yig'inlari zimmasiga 200 dan ortiq vazifa yuklangan edi[11].

Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarining yashab borishini ta'minlab olish uchun davlat apparati tashkilotlarini zamonaviylashtirishning asosiy muhitini yaratish uchun bu

sohalarga oid bo'lgan, islohotlar dasturini belgilab berdi: davlat boshqaruv apparatini vakolatlarini cheklash, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanishi uchun o'zini o'zi boshqarishda zarur bo'lgan, yetarlicha vakolatlarni berib borish. Mamlakatda mahalliy hokimiyat tashkilotlarining vakolatlarini qariyb yarimini markaziy boshqaruvdan, mahalliy hokimiyat tashkilotlariga o'tkazib borish masalasi uni nomarkazlashtirishning muhim qismi bo'lib, ushbu funksiyalarni bajarishda zamonaviy rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rgan xolda, ularni kundalik hayotga kengroq tatbiq etish, bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Xulosa. Umumiy tahlillar shuni ko'rsatadi-ki, O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida isloh etish jarayoni izchil, bosqichma-bosqich va tizimli xarakter kasb etayotganligini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa so'nggi davrda amalga oshirilgan huquqiy-demokratik islohotlar mahalla institutining jamiyat hayotidagi o'рни va ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi hamda uni davlat va jamiyat o'rtasidagi samarali bog'lovchi bo'g'inga aylantirdi.

Davlat boshqaruvini markazlashtirilgan modeldan nomarkazlashtirilgan tizimga o'tkazish jarayonida o'zini o'zi boshqarish organlariga berilayotgan vakolatlarning kengayishi ularning funksional imkoniyatlarini kuchaytirib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mahalla institutining ijtimoiy himoya, jamoatchilik nazorati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, oilalar, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlashdagi roli tobora ortib borayotgani fuqarolik jamiyati barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

2017–2023-yillar davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat dasturlari mahalla institutining huquqiy, tashkiliy va moddiy-texnik negizlarini mustahkamlashga xizmat qildi. Ushbu chora-tadbirlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini davlat boshqaruvi tizimida faqat ijrochi emas, balki faol, tashabbuskor va mustaqil subyekt sifatida shakllanishiga imkon yaratdi. Xususan, "Obod va xavfsiz mahalla" konsepsiyasining amaliyotga tatbiq etilishi mahalliy miqyosda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda aholining qonuniy manfaatlarini himoya qilishda samarali mexanizm sifatida o'z tasdig'ini topmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarini isloh qilish jarayoni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy davlat barpo etish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan strategik maqsadlarni amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. Kelajakda ushbu institutlarning huquqiy mustaqilligini kengaytirish, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish, shuningdek, jamoatchilik ishtirokini yanada faollashtirish fuqarolik jamiyatining barqaror va uzluksiz taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonuni (25.04.2013) // <http://taraqqiyot.uz/qonunchilik yangiliklari/article post/fuqarolarning-zini-zi-boshqarish-organlari-trisidagi-zbekiston>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-oktyabrdagi "Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi faolliyati tashkil etish masalalari to'g'risida» gi qarori.

- //Mahalla: o'zini o'zi boshqarish huquqiy kafolati (Qonunchilik va me'yoriy hujjatlar to'plami). - Toshkent: 1999. - B.87-89.
4. O'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati takomillashmoqda // <http://qoraqalpoq.adliya.uz/qora-qalpoq/uz/news/detail.php?ID=4374>.
 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4944-sonli Farmoni (2017-yil 3-fevral) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent: 2017. 6-son. 69-modda.
 6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 940-sonli qarori (2017-yil 23-noyabr)// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2017-yil 25-noyabr <https://nrm.uz/contentf?doc=524135>.
 7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.02.2018-yilda qabul qilingan 117-sonli "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018-yil 17-fevral.
 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyunda qabul qilgan PF-5467-sonli "Obod mahalla" dasturi to'g'risida"gi Farmoni// "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami". - Toshkent: 2018-yil 2-iyul, 26-son, 508-modda.
 9. O'zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PF-5938-son.// <https://lex.uz/ru/docs/4740345>
 10. Bo'stonov A., O'rinov T., Tog'ayqulov T., Seitov A., Fuqarolar yig'inlari xodimlari faoliyatini manzilli tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. - Toshkent: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. - B 3-4.
 11. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili amalga oshiriladi <http://www.uzavtoyul.uz/cy/post/obod-va-xavfsiz-mahalla-tamoyili-amalga-oshiriladi.html>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).